

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
TABIIY FANLAR FAKULTETI
TUPROQSHUNOSLIK VA GEOGRAFIYA KAFEDRASI
5140900-Kasbiy Ta'lim (Agronomiya)TA'LIM YO'NALISHI**

To'raeva Nazira Muxtor qizining

**“G'O'ZANING BUXORO -8 VA BUXORO -10(SARDOR) NAVLARIDA
FENOLOGIK KUZATISHLAR VA ULARNI O'QITISH USLUBLARI “**

mavzusida

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

dotsent. M. Maxmudov

Buxoro-2018 yil

MUNDARIJA

KIRISH-----

Mavzuning dolzarbligi-----

Mavzuning maqsadi va vazifalari-----

Qo'llanish sohasi-----

1-BOB. ASOSIY QISM.

G'ozaning Buxoro -8 va Buxoro -10(Sardor) navlarida fenologik kuzatishlar va ularni o'qitish uslublari mavzusiga oid bo'lgan adabiyotlar tahlili.

1.1 . G'oz navlarini fenologik kuzatish va o'qitish uslubiyoti bo'yicha adabiyotlar tahlili-----

1.2.Dunyo paxtachiligining rivojlanish holati va istiqboli-----

II-BOB. BUXORO VILOYATI TUPROQ –IQLIM SHAROITI. TAJRIBA O'TKAZISH JOYI VA USLUBI.

2.1. Buxoro davlat universiteti ilmiy o'quv tajriba xo'jaligi to'g'risida ma'lumot-----

2.2. Buxoro viloyati tuproq sharoiti-----

2.3. Buxoro viloyati iqlim sharoiti-----

2.4. Buxoro davlat universiteti o'quv tajriba xo'jaligida o'rganilgan navlar to'g'risida ma'lumot-----

2.5.Tajribada o'rganilgan g'oz navlarining fenologiyasi.(o'sishi va rivojlanishi)-----

3 BOB.“ G'O'ZANING BUXORO -8 VA BUXORO -10(SARDOR) NAVLARIDA FENOLOGIK KUZATISHLAR VA ULARNI O'QITISH USLUBLARI “ MAVZUSINI O'QITISHDA YANGI PEDAGOGIK TEXNALOGIYA OMILARINING QO'LLANISHI VA PEDAGOGIK VA PSIHOLOGIK ASOSLARI.

3.1“G'ozaning Buxoro -8 va Buxoro -10(Sardor) navlarida fenologik kuzatishlar va ularni o'qitish uslublari “ mavzusini o'qitishda yangi pedagogik texnologiya omilarining qo'llanishi-----

3.2 G‘o‘zaning Buxoro -8 va Buxoro -10(Sardor) navlarida fenologik kuzatishlar va ularni o‘qitish uslublari “ mavzusini o‘qitishdagi pedagogik va psixologik asoslar-----

3.3. G‘o‘zaning Buxoro -8 va Buxoro -10(Sardor) navlarida fenologik kuzatishlar va ularni o‘qitish uslublari “ mavzusini o‘qitish uslublari-----

3.4 Kasb-xunar kollejlarda g‘o‘zaning Buxoro -8 va Buxoro -10(Sardor) navlarida fenologik kuzatishlar va ularni o‘qitish uslublari mavzusida mustaqil ta’limni tashkil qilish-----

XULOSA. TAKLIF VA TAVSIYALAR-----

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI-----

-

Kirish.

Birinchi Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek: —Barchamiz yaxshi anglab olishimiz kerak-ki, hayotimizning boshqa sohalaridagi ahvol amalga oshirilayotgan islohotlarimizning samaradorligi, avvalo, xalq ma'naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosimizning keng o'rganilishi, an'analarimizning saqlanishi madaniyat va san'at, fan va ta'lim rivoji bilan uzviy bog'liqdir.

Shuni alohida e'tirof qilish lozimki, O'zbekistonda fanni rivojlantirish unga innovatsion yondashuvni takomillashtirishga mustaqillikning dastlabki yillaridanoq alohida e'tibor qaratildi

Yoshlarimizning eng ulug' milliy ma'naviyatimiz ruhida, jahon miqyosida o'z mavqeyni hamisha saqlab qoladigan – shu muqaddas xis-tuyg'ularni teran idrok etadigan yosh avlodni tarbiyalab yetishtirishimiz zarur. Agar biz bugun yoshlarimizni o'z vatanimizga sodiq shaxslar sifatida yetishtirishga bel bog'lagan bo'lsak, buyuk istiqlolimiz, taraqqiyotimiz, jahon miqyosidagi o'rnimiz hamisha o'z qo'limizda bo'ladi. Bu bizning oliy maqsadimiz deb takidlar edilar

Bugungi kunda esa ilmiy tafakkurning yangilanishi, nafaqat umumiy ma'naviy muhitning, balki har bir jamiyat a'zosining ijtimoiy qiyofasi, ruhiy dunyosi, maqsad va ehtiyojlarining o'zgarishi hamdir.

Zero, XXI asr boshida ijtimoiy rivojlanishni ta'minlovchi qadriyatlar o'zgargani ayniqsa, yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Jamiyat yangi asrga qadam qo'ygani bilan bog'liq bo'lgan umumbashariy o'zgarishlar inson faoliyatini tashkil etish omillari va usullarida ham o'zgarish yasamoqda. Milliy farovonlikni yaratish manbalaridan foydalanishda asosiy e'tibor ilmni bugungi kun talabiga to'liq javob berishiga qaratilmoqda.

Milliy fan tizimlarini takomillashtirish yoki isloh qilish jarayonlarini deyarli barcha mamlakatlarda kuzatish mumkin. Shu bois, fanga malakali ishchi kuchini tayyorlash funksiyasining unsuri

sifatida qarash ,yoki kimningdir yutug'I haqida bilim olgan bolalar va kattalar soniga qarab hukm chiqarish yaramaydi. Zero, fan insonning ijodiy qobiliyatlari rivojlanishiga, jamiyatdagi iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy munosabatlardagi ishtiroki chuqurlashuviga, tegishli ravishda, insoniyat rivojiga yanada samaraliroq hissa qo'shishiga olib keladi.

O'rta Osiyoda bundan 2200-2400 yil muqaddam g'o'za o'stirilganligi va eramizning boshida toladan keng foydalanilganligi to'g'risida yetarlicha ma'lumotlar mavjud. Jaxonda eng ko'p paxta yetishtiruvchi mamlakatlar Xitoy, AQSH, Hindiston, Pokiston, O'zbekiston, Brazilya, Turkiya, Misr, Meksika bo'lib ularning hisobiga dunyoda umumiy yetishtirilayotgan paxtaning 80% dan ko'prog'i to'g'ri keladi.

O'zbekiston Respublikasi jahondagi eng yirik paxta yetishtiruvchi mamlakatlardan biri hisoblanadi. U paxtani yetishtirish bo'yicha dunyoda 4-5 o'rinlarni egallab, ko'p miqdorda paxta tolasi xorijiy mamlakatlarga eksport qilinmoqda. O'zbekiston paxtachiligi juda qadimgi tarixiy o'tmishga ega bo'lsada sohaning jadal rivojlanishi XX-asrga to'g'ri keladi

Mavzuning dolzarbligi. Paxtachilikda mo'l ko'l sifatli hosil yetishtirish ko'p jihatdan g'o'za naviga, hamda shu navlarda olib boriladigan agrotexnik tadbirlarga bevosita bog'liq. Shu bois yangi istiqbolli navlarning agrotexnikasini ilmiy asosda o'rganib mirishkor dehqonlarimizga tavsiya va ko'rsatmalar berish, agronom olimlarimizning eng asosiy vazifalaridan biridir. Paxtachilik - o'simlikshunoslik va paxtachilikning paxta yetishtirish bilan shug'ullanuvchi tarmog'i bo'lib, qishloq xo'jaligi xalq xo'jaligining eng yirik asosiy tarmoqlaridan biri hisoblanadi..

Mavzuning maqsadi va vazifalari Ta'lim sohasiga olib borilayotgan islohotlarning tub mohiyati ta'lim mazmuni va shaklini takomillashtirishga qaratilgan bo'lib, ta'lim tizimida xususan, o'rta maxsus kasb-hunar va oliy o'quv yurti muassasalari talablariga o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish jarayonining

asosiy shakli bu-darsdir. Dars-ta'limning asosiy shakli bo'libgina qolmay mazmunan va shaklan takomillashtirilgan bo'lib, o'qitishning eng samarali usuli hisoblanadi.

O'zbekistonda o'simlikshunoslik va paxtachilik fani uni rivojlantirishda paxtachilik madaniyati tizimini yuksaltirish maqsadida respublikamizda PUSEAITI va uning filiallari, g'oz seleksiyasi va urug'chiligi, FA ning genetika va eksperimental biologiyasi institutlari o'simlikshunoslik va paxtachilik bo'yicha jahon miqiyosida e'tirof etiladigan ilmiy markazlarga aylandilar. Shuning uchun ham o'simlikshunoslik va paxtachilik mamlakatimizning iqtisodiyotini yanada yuksaltirishda katta ahamiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan biri bo'lib hisoblanadi

Dars va mashg'ulotlarda qaysi darajadagi bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish muayyan loyiha asosida olib boriladi. Dars mashg'ulotlaridan tashqari o'tkaziladigan barcha ta'lim tarbiyaviy tadbirlar talabalarning dars jarayoniga olgan bilimlarini chuqurroq o'zlashtirishga xizmat qiladi

Paxtaning xalq xo'jaligidagi ahamiyatini, g'ozaning kelib chiqishi va tabiiy tarqalishini; o'simlikshunoslik va paxtachilik tarixi va geografiyasini o'rganish; g'ozaning tuzilishi va rivojlanishini, uning asosiy sharoitlarga bo'lgan talabini, shuningdek g'ozaning botanik klassifikatsiyasi va sanoatbop navlarini, kelgusi yillarda o'simlikshunoslik va paxtachilikni rivojlantirish istiqbollari o'rganishdan iboratdir.

O'simlikshunoslik va paxtachilik fanini o'rganish va keyinchalik mutaxassis sifatida ishlab chiqarishda ishlash uchun avvalo botanika, umumiy biologiya, o'simliklar fiziologiyasi, genetika, seleksiya, kimyo, o'simlikshunoslik va paxtachilik, agroximiya, qishloq xo'jalik melioratsiyasi, traktor va qishloq xo'jalik mashinalari hamda iqtisodiy fanlarni bilishni talab etadi..

Qo'llanilish sohasi. O'simlikshunoslik va paxtachilik darslarini yuksak darajada tashkil etish va o'tkazish uchun o'qituvchining pedagogik mahorati, muloqot madaniyati, nutqining to'g'riligi, aloqaviy mahoratning talabalarga ta'siri pedagogik nutq texnologiyasi egallaganlik darajasi o'z navbatida yangi pedagogik texnologiyaga asoslangan holda amalga oshiriladi.

Bu jarayon o'qituvchi faoliyati va uslubiyoti turli ko'rinishlari orqali amalga oshiriladi. Pedagogik faoliyat shakllari o'qituvchining talablar asosida maruza, amaliy mashg'ulot davomida hikoya, erkin suhbat, muloqot-munozara darslarida namoyon bo'ladi. Darsning tuzilishi turlicha bo'lishi mumkin. Shu sababli paxtachilik darslarini aynan bir an'anaviy andoza bilan o'tkazish mutloqo shart emas balki noan'anaviy tarzda darsni olib borish kerakdir. Noan'anaviy dars tuzilishi turlari o'quv materiallarning mazmuniga o'quvchilar kuchi bilan yaratilgan ko'rgazmalar, talabalarning bilim saviyasiga va o'qituvchining pedagogik mahoratiga bog'liq. Dars yanada qiziqarliroq bo'lishi uchun darslar elektronlashtirilgan holatga bo'lishi, talabalarga internet yangiliklardan foydalanish tavsiya etiladi. Umuman olganda, O'zbekistonda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risidagi qonun" "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturining" yosh avlodni barkamol, yuksak ma'rifatli va jaxon andozalariga mos keladigan mutaxassislar qilib yetkazisnga asos soldi. Bu yuksak vazifani amalga oshirish uchun hozirgi kunda qabul qilingan talabalar bilimini reyting usulini baholash tizimi katta imkoniyat beradi. Shu munosabat bilan barcha o'quv fanlar qatori o'simlikshunoslik va paxtachilik ta'limi oldiga ham agropedagogik nuqtai nazaridan aniq vazifalar qo'yilishi lozim. Biz shuni nazarga tutgan holda, o'simlikshunoslik va paxtachilik faninig o'qitishda zamonaviy texnologiyalarr va noan'anaviy interfaol usullardan yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish bo'ycha agropedagogik ishlanmalar, tavsiyalar ishlab chiqarishni asosiy maqsad qilib qo'ydik. Ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar fan, texnika taraqqiyoti jamiyatimizning demokratlashuvi axborot miqyosining oshib borishi kabi omillar yosh avlodni yanada kuchli mutaxasis bo'lishlari uchun katta imkoniyatlar yaratib bermoqda. Qishloq xo'jalik fanlarni o'qitishda bu yanada pedagogika va psihologiya kasbiy fanlarni to'liq o'rganish bilan birgalikda qishloq xo'jalik fanlarni ham mukammal bilishlari talab etiladi. O'simlikshunoslik va paxtachilik fanini yuqori saviyada bilim oluvchilarga yetkazib berish uchun bo'lajak pedagoglar o'simlikshunoslik va paxtachilik sohasi bilan birgalikda pedagogika va psixlogiya fanlarni ham yuqori darajada bilishilari talab etiladi.

1. BOB G‘O‘ZANING BUXORO -8 VA BUXORO -10(SARDOR) NAVLARIDA FENOLOGIK KUZATISHLAR VA ULARNI O‘QITISH USHLUBLARI USLUBIYOTI BO‘YICHA QISQACHA ADABIYOTLAR TAHLILI.

1.1 G‘o‘za navlarini fenologik kuzatish va o‘qitish uslubiyoti bo‘yicha adabiyotlar tahlili.

“Bizning asosiy maqsadimiz quyidagilardan iborat: birinchidan paxta hosildorligini oshirish; ikkinchidan paxta tolasini sifatini yaxshilash; uchinchidan yuqori sifatli urug‘lik yetishtirishni ko‘paytirish va shu yo‘l bilan urug‘lik madaniyatini oshirish; to‘rtinchidan ekinlarni sug‘orishda suvni tejash; beshinchidan atrof muhitni sog‘lomlashtirish, biologik vaziyatni yaxshilash ” deb ta’kidlab o‘tgan edilar birinchi prezidentimiz I.A.Karimov. Bugungi kunda bu vazifani amalga oshirish maqsadida mamlakatimiz prezidentimiz va u boshliq respublikamiz hukumati izchillik bilan amalga oshirayotgan agrar siyosati mustaqil O‘zbekistonimiz qishloq xo‘jaligini rivojlangan davlatlar darajasiga yetkazisnga, aholini oziq – ovqat va boshqa qishloq xo‘jalik mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan,bo‘lib hisoblanadi.

Bundan tashqari 1996 yil 3 aprelda e‘lon qilingan “Qishloq xo‘jaligini Davlat yo‘li bilan qo‘llab quvvatlash to‘g‘risidagi” farmon,ushbu farmonni amalga oshirish yuzasidan Respublika Vazirlar Mahkamasi qabul qilgan qarorlar ana shu siyosatning mantiqiy davomi, bu esa qishloq xo‘jalik tarmoqlarini rivojlantirish yo‘lidagi dadil qadamdir.

Vazirlar Mahkamasining 1999–2000 yillarda paxta navlarini yangilash va joylashtirish dasturi to‘g‘risidagi qarorida respublika miqyosida, o‘simlikshunoslik va paxtachilik, uning seleksiya va urug‘chiligini yaxshi yo‘lga qo‘yish vazifasi qo‘yilgan edi.

Paxtachilik o‘simlikshunoslik va paxtachilik fanining bir bo‘limi hisoblanib, xalq xo‘jaligining g‘o‘za ekish va paxta yetishtirish bilan shug‘ullanadigan tarmog‘i

Malvaceae oilasining *Gossypium* turkumiga mansub bo'lib g'ozaning kelib qonuniyatlari haqidagi fandır.(O'zbMENk -7 tom).

Tolipova J (2002y) ma'lumotlariga ko'ra Ta'lim-tarbiya jarayoniga pedagogik texnologiya tadbiriq etilsa, axborotlarni tezqor suratda qabul qilib olish, ularni tahlil etish, qayta ishlash, nazariy jihatdan umumlashtirish, xulosalash hamda o'quvchiga etkazib berishni ta'minlaydi. Pedagogik texnologiyaning asosiy tamoyillariga amal qilgan holda pedagogik faoliyatini tashkil etish haqida va bu tamoyillar o'quvchilarni pedagogik mahoratining oshirib borishga hamda talabalarning kasbiy sifatlarini egallashi, shuningdek ularda shaxsiy tajribalar hosil bo'lishilga zamin yaratishi haqida o'zining fikrlarini namoyish etgan.

Doniev.R (2001y) ma'lumotlariga ko'ra "Pedagogik texnologiyalarr" kursi ta'lim dasturidan endigina o'rin olmoqda, lekin ta'lim dasturining uchunchi "Umumkasbiy" fanlarga kirgan pedagogik texnologiya, psihologiya, nutq madaniyati kabi fanlarni o'zaro mustahkam aloqada, shuningdek gumanitar fanlar jumladan, falsafa fani bilan chuqur aloqadorlikda o'qitish zarurligini ta'kidlagan.

R.Nazarov (2008-2009y)ma'lumotlariga qaraganda keyingi vaqtlarda jahonda paxta hom ashyosini yetishtirish va uning tashqi savdoda iste'mol hajmining kamayishi ko'zatilayapti.Masalan(2008-2009)yillarda jahonda 24,6 million tonna paxta tolasi tayyorlanlangan vaholanki, talab 26,millioan tonnani tashkil etadi.Jahon paxta tolasini ishlab chiqish talabga qaraganda 7,2 foizga kamaygan.

Abdullaev A. X, Maraximov A. R (2004y) ma'lumotlariga ko'ra "Zamonaviy informatsion texnologiyalarr" ni qo'llashl, talabalarning o'zlashtirish samaradorligini yuqori bo'lishilni ta'minlaydi. Mavzularni yoritish, bir vaqtning o'zida ham o'qish, ham ko'rish, ham tinglash imkoniyatini beradi. Bu esa o'quvchining ko'proq ma'lumotlarni eslab qolishini, hamda o'zlashtirish samaradorligini yuqori bo'lishni ta'minlaydi.

Suvonov O, Mardiev S (1999y) ma'lumotlariga ko'ra Ta'lim tizimida axborot texnologiyasini modellashtirish muhim ahamiyatga ega ekanligini

ta'kidlab o'tganlar. Modellashtirishni yo'lga qo'yilishi zamonaviy axborot texnologiyalarri nazariyasini yaratish hamda kompyuter tarmoqlari negizida ta'lim jarayonining barcha bo'g'inlarini uzluksiz axborot bilan ta'minlashni yo'lga qo'yadi va ta'lim tizimidagi islohotlar ko'lamini kengaytirish bilan bir vaqtda, jaxon axborot tizimi bilan boglanishni jadallashtiradi.

Dars samaradorligini oshirishda modulli ta'lim muhim ahamiyat kasb etadi. Modulli ta'limning, ilmiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadi, o'quvchilar darsda bajariladigan topshiriqlar ko'rsatilgan o'quv materialining bajarish bo'yicha berilgan ko'rsatmalarini mujassamlashtirishni qayd etgan.

Tolipova J (1999) dars o'tish texnologiyasiga ham e'tibor qaratgan. Mazkur uchrashuvda "mutaxassislar" o'zlarini egallagan bilimlarni xuddi "arra" tishlarini ketma-ket kelganidek navbat bilan o'rtoqlariga bayon qiladi. Ushbu guruhlarda o'quv materialining to'rta qismi mantiqiy ketma-ketlikda qayta ishlab chiqiladi. So'ngra o'quv materialini yuzasidan tuzilgan topshiriqlar yaxlit holatga keltirilib, guruhlar o'rtasida savol-javob, munozara o'tkaziladi.

Abduqodirov A (2002y) ma'lumotlariga ko'ra o'quv jarayonlarini jadallashtirishda kompyuterdan foydalanilsa, o'quv tajribalari, natijalari va ma'lumotlarni tahlil qilish va mos qonuniyatlarni aniqlashda, laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish, algebra fanidan funksiyalarni tekshirishda, fizika va kimyoga oid jarayonlarning matematik modulini ko'rish va tahlil qilishda yaxshi samara berishini ta'kidlab o'tgan.

Axrorova Z (2003y) ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda o'qitish usullarini ham jonlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki o'qitish usullari o'quv jarayoning asosiy qismini hisoblanadi. Bular aqliy hujum, munozara, ajurli arra, debat, o'z o'ziningni top, tanqidiy fikrlash, muz yorish, qor bo'ron va boshqa metodlardir. Bu usullar ichida debat usulining o'zini alohida bo'lib ta'lim jarayonida qo'llanilsa, talablarning faolligini oshirishga, erkin fikr bayon qilishga, jamoa bilan hamkorlik, nutq va muomala madaniyatini egallash kabi xislatlarni shakllantirishga ko'maklashadi.

E. Goziev (2003y) ma'lumotlariga ko'ra O'zbekiston Respublikasi oliy o'quv yurtlarida o'qitishning yangi metodlari orasida muammoli o'qitish uslubiyoti muhim ahamiyat kasb etadi, shuningdek u bo'lg'usi mutaxassislarni tanqidiy, mustaqil fikrlashga hamda bilish faoliyatini noaniq, noma'lum yangi usuli masala moxiyatga kirishga, uni qilishga yo'naltiradi. Muammoli o'qitish uslubiyoti o'quvchining aqliy faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, ularni moddiy borlik, shaxslararo munosabat hamda ularning mexanizmlarini xar tamonlama anglab olishga asosiy negiz bo'lib xizmat qilishni ta'kidlab o'tgan.

Lutfullaev M (2003y)ning ta'kidlashicha, o'qituvchi tomonidan darslar o'quvchilarning dasturiy materiallarni puxta o'zlashtirib olishni ta'minlashga yordam beradigan an'anaviy bo'lmagan dars turlaridan foydalanish muhim o'rin egallaydi.

Noan'anaviy dars turlari yangi materialni bayon qilishda, takrorlash va bilimlarni mustahkamlash, Imashqlar yechishda ijobiy natijalar berishi tabiiy hol. Noananaviy darslar faqat o'quvchi dars materiallarini chuqur va tez o'rganisni ta'minlabgina qolmay, shu bilan birga qator uning shaxsini, muomala madaniyatini tarbiyalaydi, o'ziga ishonchni, erkin xarakat, isbotlab berishga intilish kabi xususiyatlarni teranlashtiradi.

Ayni vaqtda-axborot, pedagogik texnologiyalarning shiddatli tizimida multimediyali elektron darsliklarni yaratish davr talabidir. Multimediyali elektron darsliklardan foydalanish o'quvchilarning bilish saviyalarni oshirish bilan bir qatorda mustaqil ishlash, xar bir talabaning fikrlash, mavjud holatni baholash va o'z fikr muloxazalarni bayon qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi, darsliklar, adabiyotlar bilan mustaqil ishlash o'rganisn kabi fazilatlarni ruyobga chiqarishni qayd etgan.

Djumaev SH.B., Rahmatov I.M (2013y)Qashqadaryo viloyatimiz Respublikada katta maydonda g'oz ekinini parvarishlaydigan hudud hisoblanib, har yili 160400 gektardan ortiq maydondan 420000 tonnadan ortiq paxta hosili terib olinadi. Ushbu maydonning asosiy maydonida (72 % ida) o'rtapishar (Buxoro-6, Buxoro-8) g'oz navlari ekiladi.

Birinchi Prezidentning 2013 yil 12 fevralidagi PQ-1919 sonli «2013 yilda g'oz navlarini joylashtirish va paxta yetishtirishning prognoz xajmlari to'g'risida» gi qarori bo'yicha 2013 yil hosili uchun Qashqadaryo viloyatida Buxoro-8 navi 74000, Buxoro-6 navi 41,6, Buxoro-102 navi 14800, Namangan-77 navi 12200, Beshqaxramon navi 12800 va yangi navlar 5000 jami 160400 gektarga ekilishi rejalashtirilgan edi. Birinchi Preziden I.A. Karimov 2008 yil 20-21 iyunda Qashqadaryo viloyatiga qilgan tashrifi chog'ida ilg'or fermer xo'jalik rahbarlari va mutaxassislar bilan uchrashuvidagi maruzasida bu hududning tuproq-iqlim sharoiti o'ziga xosligi, jumladan boshqol don va paxta yetishtirish uchun katta yer resurslariga ega ekanligini aytdi. Shu bilan birga viloyatda o'simlikshunoslik va paxtachilikni yanada rivojlantirish uchun hozirda ekilayotgan o'rtapishar g'oz navlarini bosqichma-bosqich ertapishar g'oz navlari bilan almashtirib borish va serhosil, kasallik va zararkunanda-larga, qurg'oqchilikka chidamli, tolasi xaridorgir bo'lgan g'oz navlarini shu hududning o'zida yaratish va ularning parvarishlash agrotexnologiyasini yaratish kerakligini uqtirdi. Viloyat mamlakatimizning janubiy hududi hisoblanib, o'zining o'ziga xos tuproq-iqlim sharoitiga ega. YA'ni, issiq yozi, quruq havosi, garmsel va qumli shamollari bu hududda parvarishlanadigan qishloq xo'jalik ekinlari rivojiga salbiy ta'sir etadi. SHu bilan birga bahor oylaridagi uzluksiz yog'ingarchiliklar ertachi ekilgan g'oz nihollariga salbiy ta'sir etib, uni nobud bo'lishiga va pirovard natijada qayta bo'zib, kech ekilishiga sabab bo'lsa, ko'z oylarida uchraydigan ertachi salqin havolarni boshlanishi o'rtapishar navlarning mavjud bo'lgan ko'saqlarini ochilishi uchun talab etiladigan samarali xaroratni yetishmasligiga olib keladi.

Maxmudova (2004y) ta'kidlarga qaraganda shu ma'lum bo'ldiki, ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda yangi pedagogik texnologiyalarrdan foydalanish vazifasi turibdi. Bundan kelib chiqqan holda talabalarni pedagogika turkumi fanlar asosida ma'naviy shakllanishida an'anaviy ta'lim tizimida qo'llanilganda qanday ijobiy natijalar ko'rsatishni yoritib bergan.

Mamatqulov R. (2004y) ning ko'rsatishicha, dars jarayonida "baxs-munozara" ya'ni interfaol usullardan foydalanib, dars o'tish, talabalarni qaysi gapini qayerda gapirish kerakligiga odatlantirib boriladi. Ular o'z fikr-muloxazalarini, goyalarini o'zlari erkin ifoda eta oladigan, mustaqil, puxta ilm manbaini egallab boradilar. Natijada bugungi jamiyatimiz talabiga monan yoshlar shakllanadi va o'z-o'zilariga baho berib, o'zlarining bilimlariga ishonib boradilar. Bunday shakllanib borayotgan yoshlarimiz xayotda, albatta, o'z o'rinlarini topadilar.

H.Ne'matov (1997 yil) bergan ma'lumotiga ko'ra paxtadan yuqori va sifatli hosil olish jarayonida tuproqning ahamiyati mo'tadil ekologik sharoit yaratishda beqiyosdir. G'o'zaning yaxshi rivojlantirishi uchun tuproq unumdor, oziq elementlarga boy, zararli moddalarsiz ekologik jihatdan toza bo'lishi zarur. SHuning uchun yuqoridagilarni inobatga olib, viloyatning tuproq-iqlim sharoitiga mos, ertapishar, serhosil, tola va chigit sifati yuqori bo'lgan navlarni yaratish, yaratilgan navlarni shu hududda sinash va olingan natijalar asosida hududga moslarini tanlash va ularni hududlarga joylashtirish dolzarb masala hisoblanadi. Bularni inobatga olib, O'zbekiston paxtachilik ilmiy tadqiqot instituti Qashqadaryo filialining 1984 yilda tashkil etilgan seleksiya bo'limida 1998 yilda boshlangan o'rta tolali g'o'za seleksiya ishlari natijasida shu hududning sharoitiga mos, serhosil, ertapishar, tola va chigit sifati yuqori bo'lgan «O'zPUSEAITI-2601» g'o'za navi yaratildi va hozirgi kunda Davlat nav sinash shaxobchalarida sinalmoqda. SHu bilan birga har yili viloyatning taqirsimon tuproqlari sharoitida 20 dan ortiq rayonlashgan, istiqbolli va yangi g'o'za navlarini ekologik sinovini o'tkazadi. 2010-2012 yillarda Respublika ilmiy-tadqiqot institutlari tomonidan yaratilagn 20 dan ortiq rayonlashgan, istiqbolli va yangi navlar Kasbi tumani "Paxtaqor" MMTP hududidagi "SHonazar ota Avazmurodov" fermer xo'jaligidagi dala maydonida sinaldi. Ushbu ekologik nav sinash ko'chatzorida viloyatda katta maydonga ekilayotgan Buxoro-6, Buxoro-8,

Buxoro-102 va Namangan-77 navlari bilan birga yangi va istiqbolli g'oz navlari sinaldi. G'oz navlari

chigiti yillarga bog'liq holda 10-17 aprel kunlari ekildi. Mavsumlarda navlar 3 marta oziqlantirilib, 4 marta sug'orildi va 5-7 marta qator oralari ishlandi.

Tajriba dalasida har bir oy boshida o'tkazilgan fenologik ko'zatuvtlardan tashqari gullash, pishish fazalari aniqlandi. SHu bilan birga har oyda har bir navda paydo bo'lgan ko'sak miqdori, ko'sak ochilish tezligi, terimlar bo'yicha hosildorlik va har terim oldidan terib olingan namunalarda sifat ko'rsatkichlari aniqlandi.

Navlar maqbul muddatda ekilganligi va shu bilan birga bahor va yoz oylaridagi haroratni yetarli bo'lishi ko'saqlarni etilib o'z vaqtida ochilishini ta'minladi. SHu sababli ertapishar navlarda (Barhayot, O'nqo'rg'on-2, Sulton va Beshqaxramon)

1 avgustda har bir o'simlikda 0,1-0,4 donadan ko'sak ochildi. 1 sentyabrda o'simliklarda to'plangan ko'saqlar miqdori 9,9 donadan (Buxoro-8) 12,1 donagachani (Hamkor) tashkil etdi. Ochilgan ko'saqlar miqdori esa navlarning yerta va kechpisharligiga qarab bir-biridan farq qildi. YA'ni, Buxoro-102,

Barhayot, Beshqaxramon, kabi navlarda har bir o'simlikda 2,8-3,5 dona ko'sak ochilgan bo'lsa, Buxoro-8, Buxoro-6 va O'nqo'rg'on-2 navlarida bu ko'rsatkich 1,1-1,6 donaga teng bo'ldi. SHu o'rinda aytish mumkinki,

O'nqo'rg'on-2 navida yertaki ko'sak ochilishi ko'zatilgan bo'lsada, ochilish tezligi past bo'lganligi sababli bir oy mobaynida 1,5 dona ko'sak ochildi. Qaysiki, Buxoro-102, Beshqaxramon, Barhayot bu ko'rsatkich 3,2-3,5 donani tashkil etdi.

1 sentyabrda o'tkazilgan ko'zatuvtida esa Buxoro-6 va Buxoro-8 navlarida ochilgan ko'sak miqdori umumiy ko'sak miqdorining navlarga mos ravishda 20,0 va 22,0 % ini tashkil etgan bo'lsa, Barhayot, Beshqaxramon, Buxoro-102 navlarda bu miqdor navlarga mos ravishda 49,5; 43,2 va 40,5 % ga teng bo'ldi.

Sinovlardan ushbu navlarning tezpisharligi aniqlandi. Sinovdagi Buxoro-102, Barhayot, Sulton va Beshqaxramon navlarida dastlabki gullar 64 kunda ochildi. CHigitlar ekilgandan 70 kun o'tgach tajribadagi navlarda o'tkazilgan ko'zatuvtida o'rta tolali Barhayot, Buxoro-102, Beshqaxramon O'zPUSEAITI-

2601 va Namangan-77 g'oz navlarida 74-92 % o'simligida dastlabki gullar qayd etildi. Buxoro-6, Buxoro-8 va O'nqo'rg'on-2 da bu ko'rsatkich 44-52 % ga teng bo'ldi. CHigit ekilgandan 110 kun o'tgach Barhayot, O'nqo'rg'on-2, Sulton va Beshqaxramon navlarida dastlabki

ko'saqlar ochildi. 117 kun o'tgach esa, Barhayot va O'zPUSEAITI-2601 navlarida 60-84 % va Buxoro-6, Buxoro-8 va Sulton navlarida 12-24 % o'simliklarda dastlabki ko'sak ochilganligi aniqlandi. Sinovdagi g'oz navlarida 50 % o'simliklarda dastlabki ko'saqlar ochilish muddati chigit ekilgan sanadan 113-124 kun o'tgan kunga to'g'ri keldi. Ertapishar O'zPUSEAITI-2601, Barhayot, Beshqaxramon, Sulton va Buxoro-102 navlarida bu ko'rsatkich 113-116 kunni va o'rtapishar Buxoro-6 va Buxoro-8 navlarida 120-122 kunni tashkil etdi.

Ko'zatuv ostidagi o'rta tolali navlar orasida Buxoro-102, O'nqo'rg'on-2, Sulton, Buxoro-6, O'zPUSEAITI-2601, Buxoro-8 va Namangan-77 navlarda iyul oyida to'plangan ko'saqlar miqdori 6,8-7,5 donani tashkil etgan bo'lsa, boshqa navlarda bu miqdor 5,2-6,7 ga teng bo'ldi. Bu navlarning avgust oyida to'plangan ko'sak miqdorini tahlil qilinganda O'zPUSEAITI-2601, O'nqo'rg'on-1, Beshqaxramon va Hamkor navlarida boshqa navlarga nisbatan ko'p ko'sak to'planganligi aniqlandi.

Nazorat ostidagi navlarda ko'saqlar ochila boshlagan kundan (4 avgust) 40 kun o'tgach har bir o'simlikda 4,6 donadan 9,7 donagacha ko'sak ochildi. Nisbatan kechpishar navlarning aksariyat ko'saqlari asosan sentyabrda ochildi. Navlarda o'tkazilgan terimlar oldidan terib olingan namunalarda aniqlangan bir ko'sakdagi paxta vazni 5,3 g dan (Namangan-77) 7,5 g ga (Buxoro-8) teng bo'ldi. Buxoro-8, Buxoro-6, Buxoro-102,

Beshqaxramon, Sulton va Barhayot navlarida har bir ko'sak paxta vazin 6,0-7,5 g ni tashkil etdi. 10 sentyabrda o'tkazilgan birinchi terimda har bir navdan 8,5 s/ga dan (Buxoro-8) 18,5 s/ga gacha (Beshqaxramon) hosil terib olindi.

Buxoro-102, Barhayot, Sulton, Beshqaxramon, O'zPUSEAITI-2601 va

Namangan-77 navlarida birinchi terimda hosildorlik 14,2-18,5 s/ga tashkil etdi. 20 sentyabrda o'tkazilgan ikkinchi terimda Hamkor, S-2520, Buxoro-6 va Buxoro-8 navlaridan 19,5-24,0 sentnyerdan hosil terib olingan bo'lsa, Hamkor g'o'za navi o'simligida ochilmagan ko'sak qolmadi. 1 oktyabrda esa sinovdagi barcha navlarda mavjud ko'saqlar to'la ochilib bo'ldi.

Ekologik nav sinash ko'chatzoridagi navlardan har bir gektaridan 31,6 s dan 42,8 s gacha hosil terib olindi. Sinovdagi navlardan Buxoro-102, Beshqaxramon, Buxoro-6 va Buxoro-8 navlaridan 40 sentnyerdan yuqori hosil olindi.

Ushbu tadbir g'o'za navlarining rivojlanish gektardagi tup soniga qarab turli muddatlarda o'tkaziladi. Ko'pgina olimlarning ta'kidlashicha

Yusupov S (2001y) Qishloq xo'jaligi fanlarini o'qitishda va ta'limda kulgina fanlarni o'qitishda informatsion texnologiyadan foydalanish, internet orkali masofadan turib o'qitish (distansion ta'lim) ta'limini vujudga keltiradi. Bulardan foydalanish o'qitish jarayonining samarasini oshiradi. Fanlarning mavzulariga oid maruza matnlarni multimedia vositalari yordamida lazyer disk orkali o'qitish texnologiyalarini yaratish va dars jarayoniga tadbiq etish yaxshi samara berishni ta'kidlagan. Yuqoridagi fikrlarni inqor etmagan

Yuldosheva Z (2001y) ta'lim tizimida masofaviy o'qitish, ya'ni yangi ta'lim texnologiyalarini qo'llanilishi talabalarda o'qitish, kizikish, yangi texnologiyalarini xar bir vaqtda o'rganish xissini kuchaytirish bilan birga mustaqil ravishda o'z bilimini oshirib borishga undashi hamda dars samaradorligini oshirishga tez orada imkon berishni yoritib bergan. Xuddi shunday fikrlarni

E.T. SHayxov (1990 yil) o'simlikshunoslik va paxtachilik bilan shug'ullanadigan xo'jaliklarda, albatta mintaqaviy paxtachilik tizimiga bevosita amal qilgan holda chilpishni amalga oshirish kerak. Chunki har bir paxtachilik mintaqasining o'ziga xos sharoitlari mavjud bo'ladi. I. Sulaymonov, A. Umurzoqov, R. Oripov (1991 y) ma'lumotlariga qaraganda har bir qishloq xo'jalik ekinini ekishdan oldin, avvalo o'sha ekin urug'i, navdorligiga, navning tozaligiga asosiy e'tibor berilganda, uning chilpish muddatlari ham shunga qarab olib boriladi.

Respublikamizning barcha mintaqalarida yetishtirilgan mahsulotlar tarkibi, undagi oziq modalarning miqdori turlicha bo'lib, g'ozaning chilpish muddatini uning rejalanihiga qarab bajarib boriladi.

U.S.Jabborov (1996 y), R.Oripov (2003 y) ma'lumotlariga ko'ra bugungi kunda g'ozadan mo'l va yuqori hosil olish uchun albatta unda olib boriladigan agrotexnik tadbirlarni o'z vaqtida amalga oshirgan taqdirdagina chilpishni o'tkazib, g'ozadan yuqori hosil olishni ta'minlash mumkin. Ko'p yillik izlanishlardan keyin S.Ostonov, R.Oripov (2004 y) ko'zatuvarlarida chilpishni o'tkazish muddatlari hosildorlikka bevosita ta'sir qiladigan omillardan biri bo'lib hisoblanadi, degan xulosaga keldilar.

G'ozaning vegetatsiya davrida kechadigan barcha fizologik va biologik jarayonlarning ijobiy yoki salbiy bo'lishiga qarab rivojlanishiga qarab chilpish muddatlari belgilanadi.

Saloev M (2002y) ning fikriga ko'ra o'qitishni talabalarga ko'proq "erkinlik" berib, ulardan ko'proq fikr olishga, ularni ko'proq "gapirtirib" olishlik maqsadga muvofikdir. Zero, haqiqat chinakam baxslarda karor topgani singari aynan shunday jarayonlar orkali mavzuning mohiyatini anglab olish mumkin.

Zamonaviy texnologiyalarrrda darajali o'qitish jarayoni ham mavjudligi o'zi olib borilgan tajribalarda qayd etgan. Darajali o'qitish deganda, biz shunday o'qish jarayonini ko'zathamizki, bunday xar bir talaba xar xil darajali ta'lim olib chuqur bilimga ega bo'lishil mumkin. Lekin bu bilim dastur va rejasidan past bo'lmasligi lozim va o'qish davomida o'quvchi o'zining yaxshi tamonlarini, iste'dodini namoyon etish zarur.

I.Ismoilov, S.Sanoqulov (2006 y) A.M.Battalov (2006 y) ma'lumotlariga ko'ra viloyatimizda yaratilayotgan g'oz navlarining agrotexnikasiga e'tiborni kuchaytirib, Buxoro-6 navi uchun bedapoyadan bo'shagan va tuproq unumdorligi yuqori bo'lgan maydonlarda hosil shoxi 14-15 dona bo'lganda o'rtacha unumdor maydonlarda 13-14 dona hosil shoxi, qumoq va qayta ekilgan maydonlarda 12-13 dona hosil shaxi paydo bo'lganda chilpishni o'tkazish maqul deb hisoblaydi.

A.M.Battalov (2006 y) ma'lumotlariga ko'ra g'ozadan mo'l va sifatli hosil olishga erishish uchun almashlab ekish tizimlaridan samarali foydalanish, yerni shudgorlashdan oldin mahalliy o'g'itlar kiritish, o'suv davrida sharbat usulida sug'orishni tashkil qilish, zararkunandalarga qarshi kurashda biometodlardan o'z vaqtida keng foydalanish, chilpishni o'z vaqtdan oldinroq o'tkazishni ta'minlaydi. S.Maqsudov (2006 y) ma'lumotlariga ko'ra g'oz dalalaridagi oxirgi oziqlantirish va o'g'itlashni 10 iyuldan kechiktirmasdan tugallash kitilayotgan samaradorlikka va hosildorlikka erishishni imkonini beradi.

Sotipov G', (2008 y.) parvarishlash hosildorlikka, ta'sirini o'rganishda O'RGANCh davlat universitetida olib borgan tajribalardan shu aniqlanganki g'ozaning 175-F navi turli muddatlarda chilpish 14-15 ta hosil shoxi paydo bo'lganda chilpish o'tkazilganda va mehnat navini 1-3-1 tizimida sug'orib N-200, P-120, K-100 kg da solinadi.

A.Razzoqov (1994 y) Barcha qishloq xo'jalik mahsulotlarida bo'lgani kabi paxtachilikda ham uning hosildorligini oshirmay turib, ko'zda ko'rinarli yutuqqa yerishib bo'lmaydi. Ayniqsa bu borada seleksiya va urug'chilikni rivojlantirish yaxshi natijalar beradi. Paxta mustaqilligiga erishish qishloq xo'jaligini rivojlantirish, o'z navbatida yuqori malakali kadrlarning saviyasiga ularni tayyorlashdagi yutuqlariga bog'liq bo'lib hisoblanadi).

Nishonov, B.Xaydarov va boshqalar.(2003y) bergan ma'lumotiga ko'ra, ta'lim oluvchilar tomonidan o'quv materialari o'zlashtirilganligini, ko'nikma va malakalar hosil bo'lganligini tekshirish va baholash ta'lim jarayonining zarur tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu faqat o'qitish natijalarini nazorat qilish emas, balki o'quv jarayonining turli bosqichlarida ta'lim oluvchilarning bilish faoliyatiga rahbarlik qilish hamdir.

Baholash ta'lim jarayonining ma'lum bosqichida o'quv maqsadlariga yerishilganlik darajasini oldindan belgilangan mezonlar asosida o'lchash, natijalarni aniqlash va tahlil qilishdan iborat jarayondir.

Bilimlarni tekshirish va baholashning ta'limiy ahamiyati shundan iboratki, bunda o'quv materialining o'zlashtirilganligi haqida ta'lim beruvchi ham, ta'lim oluvchi ham

muayyan ma'lumotga ega bo'ladi. Baholash natijasida, ta'lim beruvchi uchun ta'lim oluvchilarning nimani bilishi va nimani tushunmasligi, qaysi material yaxshi o'zlashtirilganu, qaysi biri hali, yetarli darajada o'zlashtirilmaganligi yoki umuman o'zlashtirilmaganligi ma'lum bo'ladi. Bu ta'lim oluvchining bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish uchun asos bo'lib hisoblanadi. Ta'lim beruvchi o'z ishining afzalliklariga va kamchiliklariga tanqidiy baho beradi. O'z ish metodlariga to'zatislar kiritadi. SHuningdek, baholash natijalari ta'lim beruvchining o'quv dasturiga materilalarni ta'lim oluvchilarning bilish imkoniyatlari nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqishi va baholashi uchun ham juda muhimdir.

A.I.Turov va boshqalar(2009 y). O'simlikshunoslik va paxtachilik qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlaridan biri bo'lib, dalalarning unumdorligini muttasil oshirish,paxta yetishtirish agrotexnikasi va texnologiyasini takomillashtirish, seleksiya va urug'chilik ishlarini yaxshilash, g'o'zaning kasalliklariga chidamli, serhosil, tola sifati yuqori bo'lgan navlarini ishlab chiqarishga joriy etish tadbirlarini amalga oshirish o'g'itlardan samarali foydalanish, to'g'ri almashlab ekish tuproq unumdorligini oshirish kabi barcha xo'jaliklarda tadbir qilish respublika paxtaqorlarini oldida turgan muhim vazifalardandir .

M.Hasanova (2009 yil) Ko'zatuvi ma'lumotlari viloyatining taqirsimon tuproqlari sharoitida ushbu sinalgan navlardan hududda ekilayotgan Buxoro-6, Buxoro-8, Buxoro-102, Namangan-77 va Beshqaxramon navlari bilan birga filialda yaratilgan O'zPUSEAITI-2601 navini ekib yuqori hosil olish mumkinligini ko'rsatdi. Bu ma'lumot ushbu navlar (O'zPUSEAITI-2601 va Beshqaxramon) ekiladigan maydonini kengaytirish imkoni borligini ko'rsatadi. Sinovdagi Buxoro-102, Barhayot, Sulton, Buxoro-6 va Buxoro-8 navlarida 1000 dona chigit og'irligi 125-131 g ni, Buxoro-102, Beshqaxramon, Hamkor, O'zPUSEAITI-2601, Buxoro-8 va Namangan-77 navlarida tola chiqishi 38,3-41,0 % ni Barhayot, Sulton, Beshqaxramon, CHaros, S-2520, O'zPUSEAITI-2601, Buxoro-8 va Namangan-77 navlarida tola o'zunligi 33,3-34,8 mm ni tashkil etdi. O'zPUSEAITI da va uning filiallarida yaratilgan g'o'za navlarining 50 % o'simligida dastlabki ko'saqlarining

ochilishi uchun Buxoro-6, Buxoro-8 va Buxoro-102 navlarida 118-123 kun kerak bo'lgan bo'lsa,

O'ZPUSEAITI-2601, Ibrat, Andijon-35 va Xorazm-127 navlari uchun 111-115 kun yetarli bo'ldi. G'oz seleksiyasi va urug'chiligi ilmiy tadqiqot instituti (O'zG'SUITI) va uning filialarida yaratilgan navlarda bu ko'rsatkich 113-121 kun va O'simliklar eksperimental biologiyasi institutida yaratilgan navlarda esa 110-118 kuni tashkil etdi.

SHunday qilib, olingan ma'lumotlar tahlili saxro hududi sharoitida O'zPUSEAITI da yaratilgan Buxoro-6, Buxoro-8, Buxoro-102, O'zPUSEAITI-2601, O'zG'SUITI da yaratilgan Sulton va Beshqaxramon O'zO'EBIT da yaratilgan O'nqo'rg'on-2 navlaridan yuqori, yertaki va sifatli hosil olish mumkinligini ko'rsatdi.

M.Hasanov va S.Isaevlar (2009 yil) da yozilishicha paxtadan mo'l va sifatli hosil yetishtirishda g'ozani sug'orish muddatlari va me'yorlarini belgilash katta ahamiyatga ega. Ayniqsa bu yilgidek bahorning syeryomgir va salqin kelgan yilda sug'orish ishlarida alohida e'tibor qaratishni talab etadi. Ko'p yillik tadqiqotlarga qaraganda, g'ozani sug'orish muddatlari va me'yorlari tuproqning mexanik tarkibi, sizot suvlarining sathi, o'simlik holati, navning biologik xususiyati, maydonning nishabligi va dalaning suv bilan ta'minlanishini e'tiborga olib tabaqalashtirilgan holda belgilanadi.

S.Q.Qodirov va T.S.Xudoyberdievlar (2009 yil) ma'lumotlariga ko'ra o'simlikshunoslik va paxtachilikda almashlab ekishning ahamiyati shundan iboratki, o'simlikshunoslik va paxtachilik madaniyatini yuksaltirishda tuproq unumdorligini oshirishda chorvachilikni mustahkam em –xashak bazasi bilan taminlashda almashlab ekish asosiy omillardan biridir. O'simlikshunoslik va paxtachilik xo'jaliklarida almashlab ekish paxta dalalarining ekologiyasini yaxshilaydi, ya'ni meliorativ holatini yaxshilashga yordam beradi.

Hozirgi kunda pedagogika fanlari oldida ta‘lim jarayonini samarali tashkil etishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish vazifasi turibdi. Bundan kelib chiqqan holda, talabalarni pedagogika turkumi fanlari asosida ma‘naviy shakllantirishda an‘anaviy ta‘lim turlari bilan birga noanaviy ta‘lim metodlaridan quyidagilarni ko‘rsatish mumkin: talabalarni mustaqil fikrlash, o‘z fikrini ximoya qilish, erkin baxs yurita olish qobiliyatlarini rivojlantirishda muammo kuyish, muammoli vaziyatlar yaratish, ijodiy topshiriqlar, evristik suhbat tarzidagi savol-javoblar, aqliy hujum, guruhli baxslar, kichik guruhlarda ishlash, sinetika (jamoaviy fikrlashni tashkil etish) kabi maxsus metodlardan foydalanish ijobiy natijalarga erishishni ta‘minlaydi.

Bulardan eng kup qo'llaniladigan muammoviy O'qitish, talabalarda izlanish faoliyatini shakllantirishga qaratilgan.

Mazkur metod asosida bitta muammoni olga surish va asoslash yotadi. Agar muammo talabalarni kiziktirsa, unda o'z-o'zidan muammoli vaziyat yuzaga keladi. Muammoli vaziyat tarkibida savol tarzida vazifalar kuyish, farzlarni olga surish, nazariy asoslovchi vazifalar, konsepsiya, O'RGANilgan muammo sxemasi, modeli, ularni yechish yullari kiritiladi. Muammo o'qituvchi tomonidan shakllantirilib, muammo tarzida bayon etiladi, talabalar esa uylab fikr yuritish asosida muammoni o'zlari echadilar yoki muammo talabalar tomonidan qo'yilib, ularning o'zlari tomonidan echiladi.

Bunday yul bilan tushuntirilgan masalalar talabalar xotirasida o'zok saqlanadi. Guruhli baxs metodi ma'lum muammo, mavzu yuzasidan erkin fikr almashish uslubi bo'lib, bunda barcha ishtirok etuvchilar teng holda, o'zlarini notugri deb bilgan barcha masalalarga tanqidiy munosabatlar bildiradilar. Eng asosiysi-faktlar asosida mantikiy isbotlash bo'lib, barcha takliflar, izlanishlar, echimlar O'RGANilib, jiddiy tahlil qilinadi. Guruhli baxs metodining bir kancha afzalliklari bor. Kutarilgan xar bir masala-bevosita mashgulot jarayonida o'z echimini topadi. Talabalarning fikrlash qobiliyatini tezlashtirib O'RGANilayotgan fanga bulgan kizikishini oshiradi. SHu bois talabalar kelajakda mustaqil ilmiy yullarni O'RGANib boradilar. Bu metodni qo'llashldan avval talabalarga bir oy oldin mavzuni, foydalanish mumkin bulgan adabiyotlar ruyxati beriladi. Baxs mavzu maruza matnlarini takrorlamasligi va aniq javbni topish uchun turli manbalardan foydalanish nazarda tutiladi. Xar xil manbalarni (ilmiy makola, monografiya) O'qitish jarayonida talabalar tanqidiy fikrlash malakalari shakllanadi.

Ta'lim metodlarini qo'llashlni kuyidagicha ko'rsatish mumkin: talabalarda tashkilotchilik, boshqaruvchilik, mustaqil ilmiy izlanish, o'z fikrini ximoya qila olish, baxs yuritish kunikmalarini shakllantirishda guruh tashkil etib, ijodiy topshiriqlar berish, guruhlararo baxs yuritish, aqliy hujum metodi, evristik metod, klaster metodi kabilardan foydalaniladi. Talabalar ijrochilik, boshqaruvchanlik,

ular bilimlarini sinb ko'rishda maruza bilan chikish, diskussiya (baxs) lar, muammo kuyish, muammoli maruza qilish ham yaxshi natijalar beradi.

Talabalarda malaka oshirish, kasbiy kobilyatlarni rivojlantirish uchun immitatson (uxshatuvchi) lmashqlar, rollar ijro etish orkali erishish mumkin. Ular yangi goya echimini yaratish, ularini shaxsiy tajribaga yoki vazifaga boglash, basli goyalarni ma'qo'llashlga urgatish uchun esa guruhli baxslar, ma'lum bir holatlar tahlili, savol-javob, surovnomalardan foydalanish maqsadga muvofik.

Bu boradagi kizikish kuydagi pedagogik talabalaga amal qilinganda samarali natijalar beradi; ta'lim jarayonini puxta loyxalanganligi; maqsadlarning aqliy talabalarni birlashtira olish, vazifalarni tugri bo'lib berish, ishni tugri rejalashtirish; didaktiv talabalar: o'quv materialini saralash va tvyorlash, kurgazmali kurollar, jixozlar, o'quv materialini aniqlash, ishorali tarzda etkazib berish; pyerseptiv talabalar; talabalar ma'naviy dunyosiga kira olish, ularni emotsional holatlarini ob'ektiv ko'zata bilish; tadjikotchilik qobiliyati. Pedagogik holatlarni aniqlash va ob'ektiv baholay olish; yuksak pedagogik texnologiyalarrdan foydalana olish va xokazo.

Interfaol (interaktiv) ingilizcha interact-o'zaro ta'sirlashish (yoki interact interaction-o'zaro ta'sir) so'zidan olingan bo'lib, biror faoliyatni yoki muammoni o'zaro muloqotda, o'zaro muomalada, o'zaro baxs, munozarada, debat uslubida, fikrlashish asosida, hamjlhatlik bilan xal qilish ma'nosini anglatadi. Boshqaruv faoliyatini nisbatan olinganda, interfaol usullar jamoaning o'z ichki potensialidan, ishlab chiqarish imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda o'z-o'zini boshqarish, jamoa tashabbusini, novatorlik takliflarini, innovatsion (yangi) texnologiyalarrni xar tomonlama kullab-kuvvatlash va joriy qilish tushuniladi.

Interfaol usullar internet tizimining axborot texnologiyalarrining rivojlanib borayotganiligi natijada uta faol usullarga aylanib bormokda. Masalan, talaba o'quv joyida yoki uyida kompyuter oldida utirgan holda, o'qituvchi beradigan barcha bilimlarni mustaqil ravishda O'RGANish mumkin. Buning uchun albatta, barcha fanlar bo'yicha tegishli kompyuter dasturlarini yaratish lozim

“AQLIY HUJUM”.



“Aqliy hujum” metodining mohiyati jamoa hamkorligi asosida muammoni yechish jarayonlarini vaqt bo‘yicha bir qancha bosqichlarga (g‘oyalarni generatsiyalash, ularni tanqidiy va konstruktiv holatda ishlab chiqish) ajratishdan iborat.

Dars jarayonida aqliy hujumdan maqsadli foydalanish ijodiy, nostandart tafakkurlashni rivojlantirish garovi hisoblanadi. “Aqliy hujum”ni uyushtirish bir muncha sodda bo‘lib, undan ta’lim mazmunini o‘zgartirish jarayonida foydalanish bilan birgalikda ishlab chiqarish muammolarining echimini topishda ham juda qo‘l keladi. Dastlab guruh yig‘iladi va ular oldiga muammo qo‘yiladi. Bu muammo echimi to‘g‘risida barcha ishtirokchilar o‘z fikrlarini bildiradilar. Bu bosqichda hech kimning o‘zga kishi g‘oyalariга hujum” qilishi yoki baholashiga haqqi yo‘q. Demak, “aqliy hujum” yo‘li bilan qisqa minutilarda o‘nlab g‘oyalarni yuzaga chiqish imkoniyatlari mavjud bo‘ladi. Aslini olganda g‘oyalar sonini qo‘lga kiritish asosiy maqsad emas, ular muammo echimini oqilona ishlab chiqish uchungina asos bo‘ladilar. Bu metod shartlaridan biri hech qanday tashqi ta’sirsiz qatnashuvchilarning har biri faol ishtirokchi bo‘lishi kerak. Bildirilgan g‘oyalarning besh yoki oltitasigina asosiy hisoblanib muammo echimini topishga salohiyatli imkoniyatlar yaratadi.

SHunday qilib, “aqliy hujum” qoidalarini quyidagicha belgilash mumkin:

- olg‘a surilgan g‘oyalar baholanmaydi va tanqid ostiga olinmaydi;
- ish sifatiga emas, soniga qaratiladi, g‘oyalar qancha ko‘p bo‘lsa shuncha yaxshi;
- istalgan g‘oyalarni mumkin qadar kengaytirish va rivojlantirishga harakat qilinadi;
- muammo echimidan uzoq g‘oyalar ham qo‘llab-quvvatlanadi;

- barcha g'oyalar yoki ularning asosiy mag'zi (farazlari) qayd etish yo'li bilan yozib olinadi;
- "hujum"ni o'tkazish vaqti aniqlanadi va unga rioya qilinishi shart;
- beriladigan savollarga qisqacha (asoslanmagan) javoblar berish ko'zda tutilishi kerak.

VAZIFASI. "Aqliy hujum" qiyin vaziyatlardan qutulish choralarini topishga, muammoni ko'rish chegarasini kengaytirishga, fikrlash bir xilliligini yo'qotishga va keng doirada tafakkurlashga imkon beradi. Eng asosiysi, muammoni yechish jarayonida kurashish muhitidan ijodiy hamkorlik kayfiyatiga o'tiladi va guruh (sinf) yanada jipslashadi.

OB'EKTI. qo'llanish maqsadiga ko'ra bu metod universal hisoblanib tadqiqotchilikda (yangi muammoni yechishga imkon yaratadi), o'qitish jarayonida (o'quv materiallarini tezkor o'zlashtirishga qaratiladi), rivojlantirishda (o'z-o'zini bir muncha samarali boshqarish asosida faol fikrlashni shakllantiradi) asqotadi.

QO'LLANISH USULI. "Aqliy hujum" ishtirokchilari oldiga qo'yilgan muammo bo'yicha har qanday mulohaza va takliflarni bildirishlari mumkin. Aytilgan fikrlar yozib borildi va ularning mualliflari o'z fikrlarini qaytadan xotirasida tiklash imkoniyatiga ega bo'ldi. Metod samarasi fikrlar xilma-xilligi bilan tavsiflandi va hujum davomida ular tanqid qilinmaydi, qaytadan ifodalanmaydi. Aqliy hujum tugagach, muhimlik jihatiga ko'ra eng yaxshi takliflar generatsiyalanadi va muammoni yechish uchun zarurlari tanlanadi.

Izoh: Hurmatli kitobxon, mana, amerikacha "aqliy hujum" metodi bilan qisman tanishdingiz (siz, ehtimol, oldindan tanishdirsiz). Aytmoqchi bo'lgan fikrimiz inkor va ta'kid xususida: bu metod mualliflari bizning ajdodlarimizdir. Hali Amerika kashf etilmagan bir davrda o'z aql mash'alasi bilan dunyoni yoritgan qomusiy olimlarimizni (Ahmad al Farg'oniy, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Beruniy va boshqa) olasizmi, yoki etti iqlimni zabt etgan shohu-sultonlarimizni olasizmi, ular o'z muammolarini yechishda ana shu metoddan keng foydalanishgan. Bobokalonlarimiz bu metodni boshqacha nomlashgan, ya'ni: "kengash", "mashvarat", "maslahat" deb atashgan. Misol uchun ,Sohibqiron Amir Temur

saltanat oldida turgan muammolarni yechishda mashvarat chaqirib barcha saroy ahlining, vaziru-ulamolarning, farzandlarining fikrlarini diqqat bilan eshitgan va ular asosida yagona hukm chiqargan. Bu holatlar ko‘proq harbiy yurish oldidan chaqirilgan mashvaratlarda namoyon bo‘ladi. “Agar (g‘anim ustiga) lashkar tortmoqchi bo‘lsam, urush-yarashdan o‘rtaga so‘z tashlab, amirlarimning bu ikkovidan qay biriga moyilligini bilishga intilardim. Agar yarashdan so‘z ochsalar, buning foydasini urush ziyoniga solishtirib ko‘rardim, agar urushga moyil bo‘lsalar, uning naf va foydasini yarash ziyoniga taqqoslab ko‘rardim, qaysi biri foydaliroq bo‘lsa, shuni ixtiyor qilardim” (28). Bugun ana shular haqida o‘yga tolib, “g‘arb sharqdan o‘rgangan”ligiga yuz foiz ishonch hosil qilamiz va yana bir karra yaratganga iymon keltiramiz.

3.3. G‘o‘zaning Buxoro -8 va Buxoro -10(Sardor) navlarida fenologik kuzatishlar va ularni o‘qitish uslublari “ mavzusini o‘qitish uslublari.

O‘zbekiston respublikasi mustaqillikka yerishgandan so‘ng agrar yo‘nalishidagi mutaxassisliklarga bo‘lgan talab o‘zgardi, chunki bugungi kunda tayyorlanayotgan kadrlar sifati yuqori darajada bo‘lib bozor iqtisodiyoti talabiga va jaxon standartiga to‘liq javob bera oladigan kadrlar tayyorlashni talab etadi. O‘simlikshunoslik va paxtachilik fanning o‘qitish uslubiyoti deyilganda “usul” o‘z oldiga qo‘yilgan maqsadlariga erishish ma’lum obektni o‘zgartrish borasida nazariy va amaliy faoiyatini anglatadi.

O‘qitish usuli deganda ta’lim jarayonida o‘qituvchi va talaba o‘quvchilarning kutilgan maqsadlariga erishishlariga qaratilgan birgalikdagi faoliyatlari tushuniladi. O‘qitish usullari ta’lim jarayonida o‘qituvchi va talaba o‘quvchi faoliyatining qanday bo‘lishi o‘qitish jarayonini belgilab beradi.

Boshqacha qilib aytganda o‘qitish usullari xar ikkala faoliyatning ya’ni o‘qituvchi tomonidan talabalarning bilim ko‘nikma va malakalari bilan qurollantirish hamda o‘quvchi va talabalar tomonidan o‘sha nazarda tutilgan ilmiy bilim ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirish faoliyatida qo‘laniladigan yo‘llarni o‘z ichiga oladi.

Demak, o'qitish usuli xar tomonlama faol faoliyati birligini ta'minlashga qaratilgan.


Usul-ma'lum o'quv materiallarni o'qitishga qo'llaniladigan asosiy o'qitish usuli bilan birga ikkinchi bir o'qitish usulining ayrim bir elementlaridan o'qitib ish ko'rishdir.

Ta'lim jarayonida o'quv materiallarning xarakteriga qarab tanlangan o'qitishning usuli u yoki bu uslub va vositalarni o'z ichiga olgan bo'lishi mumkin. Biroq, qaysi bir o'qitish usuli uslub va vositalardan foydalanish zarurligi hammadan oldin u yoki bu o'quv fanlarining o'ziga xos xususiyatlariga bog'liqdir.

Ta'lim tizimida o'quvchilarga bilim berishning eng qulay imkoniyatlariga asoslangan holda o'qitish usullarini quydagi turlariga bo'lami.

- 1) O'qitishning og'zaki usullari
- 2) O'qitishning ko'rgazmali usullari
- 3) O'qitishning amaliy usullari
- 4) Mustaqil ish usullari
- 5) O'qitishning muammoli-izlanish reproduktiv usullari
- 6) O'qitishning induktiv va detektiv usullarini kiritish mumkin.






G'ozaning gulining tuzilishi (ko'ndalang) kesimi

1) gulbandi: 2) gulyonbarg: 3) gulkosa: 4) gultoj barg: 5) changchi naychasi: 6) changchi: 7) tuguncha: 8) changch ustunchasi: 9) onalik tumshuqchasi.

G'ozaning turi va naviga qarab gulband to'g'ri, qiyshiqroq, buqilgan, egilgan bo'lishi mumkin. O'rta va ingichka tolali g'ozalarda gulband yo'g'on va to'g'ri bo'ladi.



Joydori va Hindi-Xitoy g'ozalarida gulband ingichka va bir oz egilganroq bo'ladi. Gulband (mevaband) g'ozaning har bir turi va navlarida gulband turli o'zunlik va yo'g'onlikda bo'ladi.

O'rtacha va ingichka tolali navlarda o'zun 3-4 sm, yo'g'onligi 1,5-2 mm bo'ladi. Hosil shox chiqarmaydigan navlarda gulband yanada o'zunroq 10 sm gacha bo'ladi.

9-Jadval

1-mavzu	Paxtachilik. Paxtachilikni xalq xo'jaligidagi ahamiyatii, g'o'zani kelib chiqishi va tarqalishi.
---------	---------------------------------------------------------------------------------------------------------

1.1. Ma'ruza mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi

<i>O'quv soati: 2 soat</i>	<i>Talabalar soni: 48</i>
<i>O'quv mashg'ulotining shakli</i>	Kirish ma'ruzasi
Ma'ruza mashg'ulotining rejasi	1.Kirish. 2.Paxtachilikning xalq xo'jaligidagi ahamiyati 3.O'zbekiston Respublikasining paxtachilik bo'yicha dunyoda tutgan o'rni.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi .</i> Paxtachilik O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlaridan biri hisoblanadi. SHuning uchun ham Respublikamiz prezidenti I.A.Karimov 1997 yil Oliy Majlisning 26 dekabrda bo'lib o'tgan X sessiyasida «Qishloq xo'jaligi taraqqiyoti to'kin hayot manbai» mavzusidagi so'zlagan nutqida hamda 1998 yil noyabrda Vazirlar Mahkamasining 1999-2000 yillarda paxta navlarini yangilash va joylashtirish dasturi to'g'risidagi qarorida respublikamiz miqyosida paxtachilik, uning seleksiya va urug'chiligini yaxshi yo'lga qo'yish, yani tezpishar, serhosil hamda tola sifati jahon bozorida raqobatlashaoladigan darajada yaxshi bo'lishi uchun paxtakorlar va olimlar oldiga katta vazifalar yuklatilgan.	

<p>Pedagogik vazifalar:</p> <ul style="list-style-type: none"> o'quv fanining ahamiyati va vazifalari, hamda o'quv fanlari tizimidagi roli, o'zni bilan tanishtirish; fanning strukturaviy tuzilishi va tavsiya etiladigan o'quv-uslubiy adabiyotlar haqida ma'lumot berish; paxtachilik fanining predmeti va vazifalari xaqida tushuncha berish ; fanni o'rgatish jarayonidagi uslubiy, tashkiliy ishlar mazmunini, hamda baholash muddatlari va shakllarini yoritish; 	<p>O'quv faoliyatining natijalari:</p> <p>Talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> fanning ahamiyati va vazifalarini tushuntiradi; o'quv faoliyati bo'yicha fanning strukturaviy tuzilishini tushuntiradi; fundagi nazariy va amaliy yangiliklarni yoritadi; fan bo'yicha uslubiy va tashkiliy ishlarning asosiy tomonlari, hamda baholash shakllari va muddatlarini yoritadi; paxtachilikning tadqiqot uslublari va rivojlanish bosqichlarini tushuntiradi.
O'qitish uslubi va texnikasi	«Aqliy hujum», suhbat
O'qitish vositalari	Ma'ruza matni, proektor, tarqatma materiallar, kodoskop, slaydlar, format qog'ozlari.
O'qitish shakli	Jamoaviy va guruhlarda ishlash.
O'qitish shart-sharoiti	Texnik vositalardan foydalanishga va guruhlarda ishlashga mo'ljallangan auditoriya
Monitoring va baholash	Savol-javob, Nazorat savollari

1.2.Ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi 10-Jadval

<i>Faoliyat bosqichlari</i>	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	<i>O'qituvchining</i>	<i>Talabaning</i>
I. Mavzuga kirish bosqichi (20 daqiqa)	1.1.O'quv fanining nomini e'lon qiladi. Fan haqida dastlabki tushuncha beradi va fan miqyosida uslubiy va tashkiliy ishlarning asosiy tomonlarini ochib	Tinglaydilar.

	<p>beradi.</p> <p>1.2.Mazkur fan bo'yicha o'rganiladigan mavzularni e'lon qiladi, ular haqida qisqacha ma'lumot beradi, hamda laboratoriya mashg'ulotlar bilan bog'laydi. Fan reytingi: joriy, oraliq va yakuniy nazoratning baholash mezonlari bilan tanishtiradi (1-ilova).</p> <p>Adabiyotlar ro'yxatini taqdim etadi va izoxlaydi (slayd).</p> <p>1.3.Mavzuning nomi, maqsadi va kutilajak o'quv natijalarini e'lon qiladi.</p> <p>1.4. «Aqliy hujum» metodini qo'llab, mavzu bo'yicha tanish tushunchalarni aytishlarini taklif qiladi (2-ilova). Barcha takliflarni doskaga yozib boradi.</p> <p>1.5. Ushbu ishni o'quv mashg'ulotining yakunida oxiriga etkazishlarini aytadi.</p>	<p>Tinglaydilar va yozib oladilar</p> <p>Mavzuni daftarlariga yozadilar.</p> <p>O'z fikrlarini bildiradilar.</p>
<p>II. Asosiy bosqich (50 daqiqa)</p>	<p>2.1.Mavzu bo'yicha ma'ruza matnlarini tarqatadi: mavzu rejasi va asosiy tushunchalar bilan tanishib chiqishni taklif qiladi.</p> <p>2.2.Suhbat o'tkazish yordamida asosiy nazariy ma'lumotlarni beradi. Fanning predmeti, vazifalari va irsiyat va o'zgaruvchanlik xaqida slaydlarda namoyish etib, tushuntiradi (3-ilova).</p> <p>Mavzuning har bir qismi bo'yicha xulosalar qiladi. Talabalarning e'tiborini asosiy tushunchalarga va ahamiyatli tomonlariga jalb qiladi.</p> <p>2.3.Doskada qayd etilgan asosiy tushunchalarga qaytishni taklif qiladi. Talabalar bilan hamkorlikda tushunchalar ro'yxatini aniqlash-tiradi, qaytarilganlarini olib tashlaydi, mavzuga tegishli bo'lmagan ma'lumotlarni olib tashlaydi, hamda qayd etilmagan zarur tushuncha va atamalarni qo'shadi (yozadilar).</p>	<p>Tinglaydilar.</p> <p>Har bir tayanch ibora va atamani muxokama qiladilar, daftarlariga yozib oladilar</p>
<p>III. YAkuniy bosqich</p>	<p>3.1. Mavzu bo'yicha yakuniy xulosalar qiladilar. Faoliyat natijalarini izoxlaydi.</p>	<p>Savollar beradilar</p>

(10 daqiqa)	<p>Mazkur mavzu bo'yicha egallangan bilimlar kelajakda qaerlarda qo'llanilishi mumkinligi haqida ma'lumot beradi.</p> <p>3.2.Talabalar faoliyatini va belgilangan o'quv maqsadlariga erishilganlik darajasini taxlil qiladi va baholaydi.</p> <p>3.3.Mustaqil ishlashlari uchun vazifa beradi: (1) jadvalning bo'sh kataklarini to'ldirish (3-ilova); (2) nazorat savollariga og'zaki javob berish.</p>	<p>Vazifani yozib oladilar</p>
-------------	---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	------------------------------------

3.4 Kasb-xunar kollejlarda g'o'zaning Buxoro -8 va Buxoro -10(Sardor) navlarida fenologik kuzatishlar va ularni o'qitish uslublari mavzusida mustaqil ta'limni tashkil qilish.

Talaba mustaqil ishini tashkil etishda fanning xususiyatlarini, shuningdek xar bir talabaning akademik o'zlashtirish darajasini hisobiga olgan kuyidagi shakllardan foydalaniladi;

-Ayrim nazariy mavzularni o'quv va ilmiy adabiyotlar yordamida mustaqil o'rganish;

-Berilgan ayrim mavzular bo'yicha axborot (Referat) tayyorlash;

-Amaliy mashg'ulotlarga, JB, OB, YAB, topshirishga tayyorgarlik ko'rish;

-Talabalar ilmiy anjumaniga maruza tezislarni tayyorlash.

O'quv faoliyatini harakatda maqsadning barcha komponentlari amalga oshar ekan, turli usullarni birgalikda qo'llash zarur. SHuning uchun usul tanlashda eng muhim omil bo'lib aniq o'quv mashg'ulotlarni didaktik vazifasi xizmat qiladi. Didaktik vositalardan keng qo'llash,darsda texnika vositalartdan kengroq foydalanish dars samarasini ko'taradi.

SHuni e'tiborga olish kerakki, usul tanlash nafaqat maqsaddan balki o'quv materialini mazmuni va fanni qanchalik murakkab deb hisoblashlariga bog'liq.

O'quv usullarini tanlashda uning samaradorligini e'tiborga olish ham muhim ahamiyat kasb etadi o'qitish usullarining ta'siri ko'pgina ta'lim usullariga va o'qituvchining mahoratiga ham bog'liq

Biz ilmiy-tadqiqot ishimiz davomida bilim ko'nikma va malakalarni shakllantirish uchun qo'llanilgan ta'lim usullarini, ularni amalda bajarish hamda buning uchun zarur bo'lgan ko'rsatmalar va shaxsiy sifatlarini ishlab chiqarishga harakat qildik. Buni amalga oshirishda turli ta'lim usullarini qo'llashda qanday ta'lim usullardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi . Ta'lim usullarini qo'llashda qanday ta'lim usulidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Biz quyidagi berilgan o'qitish usullarini tanlash va ta'lim maqsadi o'rtasida o'zaro yaqin mavjudligini ko'rsatib o'tamiz.

Mavzuni o'tish natijasida olingan natijalar shuni ko'rsatib turibdiki, o'qitish jarayonida noan'anaviy usullar va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, an'anaviy usullardan ko'ra ancha samarali ko'rsatgichlarni qayd etmoqda va yuqori samara bermoqda.

SHu sababli hozirgi kunda tanlangan mavzuni o'qitishda noan'anaviy usullar orkali zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanib darslar o'tilsa, talabalarning o'quv, bilish imkoniyatlari rivojlanib, ularning faoliyatlari izlanuvchan ijodiy xarakterga ega bo'ladi.

Mavzuni o'tishda bunday zamonaviy dars turlarini qo'llashdan asosiy maqsad, o'quv jaryonida talabalarni faollashtirish, o'quv materialini o'zlashtirishning yuqori darajasida erishishdan iborat.

“G‘o‘zani Buxoro -8 va Buxoro -10 navlarini yetishtirish mazusidagi amaliy mashgulot“Qizitish va qiziqtirish (motivatsiya).

SHu tarzda tanlangan o'qitish predmetlari asosida nazariy fan maqsadini bayon etish orqali motivatsiya amalga oshiriladi. Bu usulga e'tiborni qaratish mavzuni o'rganishingizga tayyorgarlik uchun qulay vosita hisoblanadi. So'ngra ikkinchi bosqichga o'tiladi

Ma'lumot va bilim berish.

O'zlashtirgan bilimlarni qayta ishlash uchun topshiriqlar berish

Tahlil va sintezlar

Baholash

Har bir topshiriq vazifalar berilgandan keyin baholash kerak bo'ladi. Bunda o'qituvchi o'zi uchun maxsus baholash varag'i tutib, passiv va aktiv berilgan fikrlarni baholab borishi shart, shundagina o'qituvchi ham, talaba ham o'z maqsadiga yerishdimi, yo'qmi ma'lum bo'ladi.

Amaliy mashg'ulotlar o'tkazish.

Maxsus fanlardan amaliy mashg'ulotlarga atroflicha tayyorgarlik ko'rish va o'tkazilish lozim.

Ba'zi hollarda amaliy mashg'ulot nazariy darsga ulanib ketishi mumkin. Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishning turli qoidalari mavjud bo'lib biz bevosita va bilvosita olib boriladigan amaliy mashg'ulotlar to'g'risida to'xtalamiz. Bevosita boshqariladigan amaliy mashgulotlarda maruzalar, taqdimotlar va namoyishlardan foydalaniladi. Bularga sxemalar, prospektlar, videotasvirlar va va jixozlarning maketlari va asl namunalari kiradi. Yaxshi ishlab chiqilgan o'quv materialini talabalar diqqat bilan tinglab, ko'zatadilar. Agar mashg'ulotlar savol va javoblarga asoslangan o'quv suhbatlari, muommani muhokama qilish doirasida olib borilsa yaxshi samara beradi.

Bilvosita olib boriladigan amaliy mashg'ulotlar asosan talabalarga yo'naltirilgan mashg'ulot bo'lib, unga tayyorlangan topshiriqlar vositasida matnli kitoblarni o'qish, mustaqil o'rganish orqali o'yin-mashg'ulot olib borish, biror vaziyatni o'rganish, talabaning o'zi mustaqil o'rganishiga turtki berish, bilimlarni o'zlashtirishga turtki berish kabilar kiradi. Jarayonga yo'naltirilgan mashg'ulotlarga davra suhbatlari, guruhviy munozara olib borish, modyeratsiya usullari kiradi.

Kasb xunar kollejlari amaliy mashg'ulotlar o'tkazish uchun asosan o'quv ustaxonalaridan foydalaniladi.

Tanlangan usul asosan amaliy qobiliyatlar va ko'nikmalarni o'zlashtirishga qaratilgan va o'zida bunga taalluqli nazariy bilimlarni mujassam etgan bo'ladi.

11-Jadval

<p>4 pog'onali usulga asoslangan faoliyat</p> <p>1.Motivatsiya va axborot</p> <p>2.Namoyish</p> <p>3.Imitatsiya</p> <p>4.Mashq</p>	<p>Yo'naltiruvchi matn va loyiha usullariga asoslangan faoliyat</p> <p>1.Axborot</p> <p>2.Rejalashtirish</p> <p>3.Qaror qabul qilish</p> <p>4.Amalga oshirish</p> <p>5.Nazorat qilish</p> <p>6.Baholash</p>
------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------

Xulosa, taklif va tavsiyalar

Hozirgi davrda oliy ta'lim tizimida o'qituvchilardan texnika va texnologiyalarning kun sayin o'zgarayotganligi, ish sharoitlarining ham o'zgarayotganligi, yangi adabiyotning paydo bo'layotganligi, o'quv rejalari dasturlariga to'zatislar kiritilayotganligi, o'qitishning shakl va metodlarini takomillashtirishni talab qiladi. Ammo o'qituvchining har bir alohida darsga tayyorlanishi uning o'quv ishiga tayyorlanish faoliyatining bir qismi holos.

Xulosa qilib aytganda,

1. O'qituvchining o'z predmeti bo'yicha butun kurs yuzasidan tayyorlanishi.
2. O'quv dasturining har bir mavzusiga tayyorlanishi.
3. Har bir darsga tayyorlanishni o'z ichiga oladi.

Butun kurs yuzasidan tayyorgarlik yangi ilmiy ishlar, yangi metodik materiallar bilan tanishishni, dastur va darsliklarni o'rganishni, va boshqa ishchi hujjatlar to'zishni nazarda tutadi. Har bir mavzuga tayyorlanish o'qituvchini yana dasturga, mavzu yuzasidan qo'shimcha materiallarga, har bir mavzuning asosiy masalalarini aniqlashga, o'qitish metodlarini tanlashga va kerakli metodik vositalarni ko'rgazmali qurollar, jihozlar, uskuna, asboblarni tayyorlashga majbur etadi.

Axborot texnologiyasi va texnik vositalar samarasini belgilaydigan didaktik materiallardan keng foydalanish zamonaviy pedagogik texnologiyalarning asosiy belgilaridan biridir. Milliy dasturda ta'lim-tarbiya jarayonini boshqarishning bu muhim vositasiga alohida urg'u berilgan. Axborotli vositalar (kompyuter, elektron aloqa, radio, televidenie) dan foydalanish darajasi ikki omil bilan aniqlanadi:

1. O'quv jarayoni uchun axborotli vositalar samara beradigan mavzular yuzasidan didaktik materiallarni ishlab chiqish.
2. Pedagoglarning o'z amaliy faoliyatlarida texnik vositalar va didaktik materiallardan metodik jihatdan to'g'ri foydalana olish tayyorgarligini tekshirish.

Bugungi kunda paxtachilik fanini o'qitish masalalarini yaxshilash va aniq maqsadlar izchilligini aniqlash, fan mazmunidagi etakchi g'oyalarni, faoliyatining

asosiy turlarini ajratish predmetlararo aloqalarni ajratib olish, natijalarini tahlil qilish imkonini beradi. Har bir alohida darsga tayyorlanishga o'qituvchi quyidagi ishlarni amalga oshiradi; mavzuni aniqlaydi, dars vazifalarini konkretlashtiradi; o'quv materialining mazmunini ajratadi va uni didaktik jihatdan ishlab chiqadi. Etakchi g'oya, tushuncha, qonuniyat, amaliy ma'lumotlarni ajratadi; ilgari o'rganilgan mavzu bilan bog'lanishni, mazmunan joylashtirish, mantiqan nazarda tutadi; talabalarning o'quv bilish faoliyatlari, xarakterini aniqlaydi, ya'ni qanday ko'nikma va malakalar shakllanishi, izlanish faoliyatini, mustaqil ish va o'qituvchining roli o'rtasidagi nisbat qanday bo'lishni o'ylab qo'yadi. SHu shakllarni ishlab chiqadi, dars qismlarini ajratadi; o'qitish metodlari: masala, mashq, muammoli savollar, topshiriq dasturlashtirish elementlarini tanlaydi va aniqlaydi. O'qitishning texnik vositalarini tanlaydi va tekshiradi; butun dars jarayonini rejalashtiradi. Dars rejasida, odatda sana va dars nomiyeri, uning mavzusi, vazifalari mazmunining asosiy masalalari, o'qituvchi va talabaning faoliyat turlari, o'qitish metodlari va vositalari, so'raladigan talabaning familiyasi, individual topshiriqlar, uyga vazifa ko'rsatiladi. Ammo dars rejalarining tuzilmasi va hajmi o'qituvchining malakasi hamda tajribasidan kelib chiqib tuzilishi kerak. YAxshi tayyorlangan darsni yana uyushgan holda aniq va samarali o'tkaza bilish ham kerak. Bunda biz quyidagi *takliflarni* ilgari suramiz:

1) Darsni aniq va uyushgan holda boshlash, buning uchun esa darsga hamma narsa oldindan tayyorlangan bo'lishi kerak.

2) Talabalar e'tiborini dars mazmuniga qarata bilish va uni butun dars davomida talabalarning bilish faoliyatlarini faollashtirib saqlay bilish, darsga qiziqishni qo'llab-quvvatlash, talabalar oldida muammoli savollar qo'yish, ularni doimo javob berishga tayyor holda saqlash, darsdagi ishlarni xilma-xillash, hammani ko'rib, hamma narsani so'rab turish.

3) Darsda vaqtdan oqilona foydalanish: o'quv jihozlarini oldindan tayyorlash, ularni to'g'ri joylashtirish, topshiriqlarni bajarilishiga erishish, talabalar e'tiborini chalg'ituvchi sabablarga yo'l qo'ymaslik.

4) O‘z hatti-harakatini KUZATISH: g‘oyaviy e‘tiqod, yuksak axloqiylik va madaniyat, gapirish va talab qilish, rag‘batlantirish, talabalarga murojaat qilish uslubi – bularning barchasi o‘qituvchi faoliyatining uslubini belgilaydi hamda talabalarning zo‘r berib ishlashi yoki o‘ta emotsional holda qo‘zg‘aluvchanligini istisno qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T: O'zbekiston, 1997. 50-bet
2. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. T: SHarq, 1997. 430-bet
3. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T: O'zbekiston, 1998. 70-bet
4. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy o'z istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-tom. T: O'zbekiston, 1996. 56-bet
5. Karimov I.A. Donishmand xalqimizning mustahkam irodasiga ishonaman. T, 2000. 88-bet
6. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim tugrisida" gi qonuni. Toshkent, 1997. 18-bet
7. O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi". Toshkent, 1997. 62-bet
8. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi Toshkent, 1992. 45-bet
9. Milliy istiqlol o'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. Toshkent: O'zbekiston, 2000. 30-bet
10. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik mahorat va pedagoigk texnologiya. Toshkent.
11. A.E. Avliyoqulov, A. Battalov T. Rajabov va M. Hasanov Qarshi cho'li sharoitida Buxoro-7 g'o'za navini parvarishlash agrotexnologiyasi. 2007y Qarshi 50 bet
12. A. Razzoqov Qishloq xo'jalik mahsulotlarida. Toshkent, 1994 y. 102-bet
13. Abdullaev A. X, Maraximov A. R "Zamonaviy informatsion texnologiyalarr" ni qo'llash. Toshkent: 2004y. 66-bet
14. A.I. Turopov va boshqalar O'simlikshunoslik va paxtachilik qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlari Toshkent 2009 y. 90-bet
15. M. Hasanova, SH. Abdualimov va E. Qodirovning Toshkent viloyatida "Oqdaryo-6" g'o'za navidaqlarida Buxoro-6 g'o'za navlari o'zaro farqi Toshkent 2004y 86-bet

- 16.M.Ikromovaning 2006-2008 yillarda Buxoro viloyati sharoitida o'rta tolali Buxoro-102 g'o'za navining parvarishlash agrotexnologiyasi. 2008y Buxoro 60-bet
- 17.Mahkamov U. Axloq-odob saboqlari. Toshkent, 1994. 80-bet.
- 18.Maxmudova Ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish vazifasi 2004y i Toshkent 90-bet
19. Mamatqulov R. Dars jarayonida "baxs-munozara" ya'ni interfaol usullardan foydalanish 2004yi Toshkent 166-bet
- 20.M.Ikromova va B.Raxmatov, S.I.Maxsudovlar , B.T.Hofizov, M.Hasanova Denov, Buhoro-6,8, Oqdaryo-6 va Gulsara navlariga suv-oziqu me'yoryaarining g'o'za hosildorligiga va hosil sifatiga ta'siri.2008y Toshkent 55-bet
- 21.H.Ne'matov Paxtadan yuqori va sifatli hosil olish jarayonida tuproqning ahamiyati 1997 yil Buxoro 49-bet
- 22.Yuldosheva Z Ta'lim tizimida masofaviy o'qitish, ya'ni yangi ta'lim texnologiyalari 2001yToshkent 266-bet
- 23.U.S.Jabborov R.Oripov G'o'zaning vegetatsiya davrida kechadigan barcha fizologik va biologik jarayonlar 2003 y Buxoro232-bet
24. Saloev M Zamonaviy texnologiyalardda darajali o'qitish jarayoni 2002y Toshkent . 96-bet
- 25.Z.Abdushukurova Jizzax cho'lining bo'z tuproqlari. 2007y Jizzax
- 26.R.Nazarov Keyingi vaqtlarda jahonda paxta hom ashyosini yetishtirish Toshkent: Fan,2008 yil 210. -bet.
- 27.R.Mavlonova va boshqalar. Pedagogika. Toshkent: O'qituvchi, 2001. 45-bet.
- 28.Goziev E. Pedagogik psixologiya asoslari. Toshkent,2003. 40-bet.
- 29.G.Bekmirzaev Toshkent viloyati sharoitida gidromorf tuproqlarda tezpishar g'o'za navlarining sug'orish Toshkent 2007y 236-bet
- 30.YUusupov E. Ma'naviyat asoslari. Toshkent, 2001. 200-bet
- 31.Sariboev X . Suvonov.Mardiyev Pedagogika fanidan seminar mashgulotlarini bajarish bo'yicha uslubiy tavsiyanomalar. Toshkent, 2001. 56-bet.

32. Sotipov G', Parvarishlash hosildorlikka, ta'sirini o'rganish 2008 y. Urganch 106-bet
33. Olimov Q.T., Uzoqova L.P. Sariboev X. va boshqalar. Pedagogika nazariyasidan ma'ruza matnlari. Toshkent, 2004. 83-bet.
34. Tolipova J Doniev.R Tulenov J Ta'lim-tarbiya jarayoniga pedagogik texnologiya tadbiqu. Toshkent, 2002yil 45-bet.
35. SH.CH. Botirov M. Hojimatov va N. O'razmatov va boshqalarni Farg'ona filialida "Bo'ston" g'o'za navi yetistirish. 2004y Farg'ona 54-bet

Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman malumotlari

1. .Tuproqdan oqilona foydalanishning ekologik jihatlari. Ilmiy-amaliy konf. ma'ruzalarining tezislari. : ToshDAU, 1997. 86-bet
2. Qishloq xo'jaligida ekologik muammolar. Ilmiy-amaliy anjuman to'plami (MDH olimlari ishtirokida). Buxoro, 2000. 77-bet.
3. Qishloq xo'jaligida ekologik muammolar. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. Buxoro, 2003. 65-bet.
4. Tuproqshunoslik va agrokimyofani XXI asrda. Halqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. T.: 2003. 100-bet.
5. Qishloq xo'jaligida ekologik muammolar. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. I va II qism. Buxoro, 2006. 25-bet.
6. O'zbekiston tuproqlari va ulardan foydalanishning ekologik jihatlari. Ilmiy maqolalar to'plami. T.: ToshDAU, 1998. 34-bet.
7. O'zbekiston tuproqshunoslar va agrokimyogarlar jamiyatining qurultoy materiallari. T.: 2005. 92-bet.
8. "Biologiya, ekologiya va tuproqshunoslikning dolzarb muammolari". Respublika ilmiy-amaliy anjumani ma'ruzalarining tezislari to'plami. T.: 2006. 52-bet.

